

**“Dehqonobod kaly zavodi” aksiyadorlik jamiyat
yagona aksiyadorining
18-son qarori**

2023-yil 24-oktabr
soat 10:30

Toshkent shahri
Navoiy ko‘chasi, 38-uy

“Dehqonobod kaly zavodi” AJ tomonidan muomalaga chiqarilgan 2 301 392 924 315 (ikki trillion uch yuz bir milliard uch yuz to‘qson ikki million to‘qqiz yuz yigirma to‘rt ming uch yuz o‘n besh) dona oddiy egasining nomi yozilgan hujjatsiz ovoz beruvchi aksiyalari Jamiyat yagona aksiyadori – “O‘zkimyosanoat” AJga tegishli bo‘lganligi sababli kvorum 100 foizni tashkil qiladi.

Ushbu qaror O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlarini va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuning 58-moddasi hamda jamiyat ustaviga muvofiq yakka tartibda qabul qilindi va 2023-yilning 24-oktabr kuni yozma shaklda rasmiylashtirildi.

KUN TARTIBI:

“Dehqonobod kaly zavodi” aksiyadorlik jamiyatida 2023-yil 9 oylik yakuni bo‘yicha o‘tkazilgan korporativ boshqaruv tizimini mustaqil baholash natijalarini ko‘rib chiqish to‘g‘risida.

Kun tartibidagi masala bo‘yicha:

Korporativ boshqaruv kodeksiga asosan Jamiyat tomonidan taqdim etilgan axborot va ma’lumotlar asosida “Silk Capital” MChJ tomonidan 2023-yil 9 oy yakuni bo‘yicha jamiyatda korporativ boshqaruv tizimi bo‘yicha mustaqil baholash o‘tkazildi.

“Silk Capital” MChJning 2023-yil 23-oktabrdagi 01/01-27-son xulosasiga asosan 2023-yil 9 oy yakuni bo‘yicha “Dehqonobod kaly zavodi” AJda o‘tkazilgan korporativ boshqaruv tizimini baholash natijalariga ko‘ra 701 ball to‘plangan hamda jamiyatning korporativ boshqaruv tizimi holati “yuqori” deb e’tirof etilgan (*xulosa musxasi ilova qilinadi*).

Kun tartibidagi masala yuzasidan qaror qilindi (2 301 392 924 315 dona ovoz, 100 %):


1.“Silk Capital” MChJning 2023-yil 23-oktabrdagi 01/01-27-son xulosasiga asosan 2023-yil 9 oy yakuni bo‘yicha “Dehqonobod kaly zavodi” AJda o‘tkazilgan korporativ boshqaruv tizimini baholash natijalariga ko‘ra 701 ball to‘planganligi hamda jamiyatning korporativ boshqaruv tizimi holati “yuqori” deb e’tirof etilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. “Dehqonobod kaly zavodi” AJ boshqaruvi raisi v.b. (Zaripov):

- “Silk capital” MChJ tavsiyalariga asosan korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish bo‘yicha zarur chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqsin hamda bajarilishini qat’iy nazoratga olgan holda ta’minlasin;

- amalga oshirilgan ishlar yuzasidan jamiyat kuzatuv kengashiga tegishli ma’lumotlarni kiritsin.

Jamiyatning yagona aksiyadori
“O‘zkimyosanoat” AJ nomidan
boshqaruv raisi v.b.



T. Muxamedjanov